

**DOSTONCHILIK MAKTABLARI VA ULARNING  
AN'ANALARI, QAHRAMONLIK DOSTONLARINING  
XUSUSIYATLARI**

***Madraximova Inobat Bahodirovna***

*CHDPU Boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi*

***Boynazarova Marjona Xusan qizi***

*CHDPU Boshlang'ich ta'lim fakulteti*

*2-bosqich talabasi*

***Annotatsiya:** Maqolada dostonchilik maktablari va ularning an'analari, qahramonlik dostonlarining xususiyatlari haqida keng yoritib berilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga xalq dostonlarining kundalik hayot bilan bog'liq tomonlari keltirib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** Doston, qahramonlik, baxshi, o'zbek xalq dostonlari, Alpomish, dostonchilik maktabi, eposi*

***Аннотация:** В статье описаны школы эпоса и их традиции, характеристики героического эпоса. Учащимся младших классов были представлены аспекты народного эпоса, связанные с повседневной жизнью.*

***Abstract:** The article describes the schools of epics and their traditions, the characteristics of heroic epics. Aspects of folk epics related to everyday life were presented to elementary school students.*

***Key words:** epic, heroism, bakshi, Uzbek folk epics, Alpomish, epic school, epic*

***Ключевые слова:** Эпос, героизм, бакши, узбекский народный эпос, Алпомиш, эпическая школа, эпос.*

Dostonchilik o'zbek xalq og'zaki ijodining yirik va keng tarqalgan janri. "Doston" so'zi adabiy atama sifatida xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotdagi yirik hajmli epik asarlarni anglatadi. Xalq dostonlarini do'mbira jo'rligida ijro

etuvchi va kuylovchi san'atkor "shoir" yoki "baxshi" deb atalgan. Dastlab qo'shiq shaklidagi, musiqa asbobisiz kuylanadigan asarlar yaratilgan bo'lib X-XI asrlarga kelibgina dostonlar do'mbira jo'rligida aytila boshlangan. Dostonning bunday namunalari kaspiy va orol dengizlari bo'ylaridagi qadimgi ko'chmanchi turkiy qabilalar orasida vujudga kelgan. Epik dostonlarni yaratuvchi va kuylovchi badihago'ylar ko'payib borgan sari ustoz- shogird an'analari vujudga kela boshladi va natijada ko'pgina dostonchilik maktablari paydo bo'ldi. O'zbek baxshichilik va dostonchiligida Bulung'ur, Narpay, Qo'rg'on, Xorazm, Shahrisabz, Sherobod kabi yirik dostonchilik maktablaridan tashqari, Qamay, Piskent, o'zbek laqay va boshqa shunday markazlar ham ma'lum. Ularning repertuarlari, uslubi, ma'lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko'ra bir-biridan ajralib turadi.

Mintaqamizda o'ziga xos an'analarga ega bo'lgan dostonchilik maktablari shakllangan. Ayniqsa Bulung'ur, Narpay, Qo'rg'on, Xorazm, Shahrisabz, Sherobod kabi yirik dostonchilik maktablari mashhur bo'lgan. Ular repertuarlari, uslubi, ma'lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko'ra bir-biridan ajralib turgan.

Bulung'ur dostonchilik maktabi "Alpomish" dostonini kuylash mahorati bilan ajralib turgan, bu yerga boshqa baxshilar kelib o'z mahoratlarini oshirganlar. Uning vakili Amin baxshi "Alpomish" dostonini 3 oygacha kuylay olgan. Qashqadaryo vohasidagi Qamay qishlog'ida shakllangan. Qamay dostonchilik markazi Dehqonobod va G'uzor tomonlari atrofida yashovchi 60 ga yaqin baxshilarni birlashtirgan. Qo'rg'on dostonchilik maktabi Mangishtovdan Nurotaga qadar cho'zilgan tog'lar etaklarida yashagan baxshilarni birlashtirgan.

Xorazm dostonchilik maktabi san'ati boshqa dostonchilik maktablaridan uslubi jihatidan farq qiladi. Xorazm dostonlari yozma manbaga ega bo'lib, ba'zan aytuvchi qo'lida qo'lyozma matni ham bo'lgan, ularda musiqa yetakchi rol o'ynagan, ko'proq ishqiy-romantik dostonlar kuylangan, jamoaviy ijrochilik yetakchilik qilgan. Xorazm baxshilari dostonning harb bir qo'shig'ini muayyan kuyda ijro etganlar, dostonchilar bularni baxshi yo'llari yoki baxshi na'malari deb yuritadilar.

Qahramonlik dostonlari har bir satrida milliy mafkura, milliy g'oya va milliy qadriyatlarimizni, xalqning baxtli yashash to'g'risidagi ideal orzu-istaklarini ifodalagani sababli har bir avlod tomonidan qiziqib, ishtiyoq bilan tinglangan va har avlodning tafakkur dunyosi bilan boyitilgan holda keyingilariga asrab-avaylab o'tkazilgan. Xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish "Alpomish" dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, ajdodlardan-avlodlarga o'tib ketayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Millatni anglash uchun uning ruhiyatini bilish lozim. "Alpomish" dostonida o'zbekning ruhiy olamini anglatish jihatidan tengsiz badiiy obidadir. Chunki, asarda o'zbekka xos o'ylash tarzi, ta'sirlanish yo'sini, qarorga kelish tutumi g'oyat nozik ilg'ab olingan. Alpomish yaratilmagan, balki aytilgan yoki kuylangan. Chunki, doston qahramonlariga xos tuyg'ular, sezimlar, kechinmalar buyuk turkiylarning tomirida, qonida azaldan mavjud edi. Juda ko'pchilik folklorshunoslar, odatda, markazlashgan davlat tuzish, bo'lingan yurtni birlashtirish, sevgi-muhabbat mavzulari- Alpomish dostonining sujet rivojini ta'minlaydi deb tushuntirishadi. Bizning nazarimizda esa doston markazida ma'rifatsizlik, johillik va uning inson taqdiriga ta'siri turadi. Asar qissadan hissa chiqarish emas, balki- qissaning o'zi ko'lamli, miqyosli, yirik, ta'sirli bo'lgani uchun aytilgan. Alpomish dostonida xalqimizga xos xislatlar yoritilgan bo'lib, uni o'quvchilarga boshqa xalq og'zaki ijodi namunalari bilan solishtirib tushuntiriladi. Xalqimizga xos xislatlardan biri- bu o'z quvonchiga atrofdagilarni ham sherik qilish ekan. Alpomish dostoniga o'quvchilarda yanada qiziqishni orttirish maqsadida o'qituvchi dostonning xalqimiz tarixida naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini aytib o'tishi lozim. Dunyodagi qabila, urug', elat tarixda alohida xalq sifatida shakllanar ekan, bu jarayon, avvalo, qahramonlik eposi hisoblangan maxsus yirik epik asarda badiiy ifodasini topadi. Haqiqatan ham, doston matnidan juda ko'p o'tmish hayot belgilari o'rin olgan bo'lib, ularni izohlash natijasida asarning xalq qahramonlik eposi ekaniga to'la ishonch hosil qilamiz.

Yoshlarni mardlik, halollik, jasurlik ruhida tarbiyalashda, ma'nan pok va barkamol qilib voyaga yetkazishda xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi

bo'lmish "Alpomish" dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo'y bo'lishga, o'z yurtini, oilasi, qo'rg'onini qo'riqlashga, do'sti, ornomusini, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzlardan saqlashga, ma'naviy-axloqiy pok bo'lishga o'rgatadi. "Alpomish" dostoni ijodiy tafakkurimiz, ma'naviy boyligimizning yorqin namunasi bo'lib, tarixiy ildizlarimizning qanchalik chuqur ekani, xalqimiz qanday muhitda shakllanib, rivojlangani, qiyinchiliklarni qanday yengib chiqqanini yorqin tasvirlab beradi. Biz Alpomish timsolida ma'naviy barkamol, axloqan pok, vijdonli o'zbek o'g'lonlarining qiyofasini ko'ramiz. Dostonda har bir qahramon o'zlarining go'zal xislarlari bilan bugungi kun yoshlariga namuna bo'la oladi. Doston bosh qahramonlaridan biri, o'zbek qizlariga iffat- u odobda namuna bo'la oladigan obraz Barchinoy o'ziga xos xarakteri va tarbiyasi bilan o'quvchilar qalbida mustahkam joy oladi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Dostonni o'qir ekanmiz turli xil qiyin vaziyatlarda Barchinoyning teran aqli, mulohazali fikri bilan barcha davr yoshlariga o'rnak bo'la olishiga amin bo'lamiz.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, o'zbek xalq og'zaki ijodining salmoqli qismini egallagan dostonlar va ushbu dostonlarning asosi hisoblangan "Alpomish" dostonining har bir qahramoni u xoh ijobiy, xoh salbiy qahramon bo'lsin, ular asl o'zbek yoshlarining tarbiyasiga ta'sir qilib, o'zida xalqimizning asriy an'alarini saqlab, kelajak avlod vakillariga yetkazishda dasturulamal vazifasini bajarishda yetakchilikni boy bermay kelmoqda va bu vazifani bajarishda davom etaveradi. Bundan tashqari dostonchilik maktablari haqida ham so'z bordi, hamma viloyatlararo dostonchilik maktablari mavjuddir, ammo ularning repertuarlari, ijro usullari, ijod tamoyiliga ko'ra ancha farqi bordir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saidov M. O'zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat. T.: Fan, 1969, 21-b.
2. O'zbek xalq dostonlari. 1-2 tom. Toshkent: "Fan", 1956-1957.
3. Mirzayev T. Doston. O'zbek folklorining epic janrlari. – T, 2006

4. Baxshillovna M. S., Shuhratovna M. S. Description and interpretation of wedding customs in the epic "Alpomish" //Middle European Scientific Bulletin. - 2021. - T. 11.

**Elektron ta'lim resurslari:**

<http://www.ziyonet.uz>.

<http://www.natlib.uz>. -A.Navoiy nomli milliy kutubxona sayti.